



[itobiad], 2020, 9 (4): 75/87

**BİLMEDİĞİMİZ HOKAND HANI: Şahruh Han İbn Muhammed
Ali Han'ın Hükümranlığı Sorusu Üzerine**

**THE KHAN OF KHOQAND WHOM WE DON'T KNOW:
on the rule of Shahrukh Khan b. Muhammad-'Ali-Khan**

Sultonov O'ktambek Abdulg'anievich

**Doç. Dr. Abu Reyhan Beruni Şarkiyat Enstitüsü / Özbekistan Uluslararası
İslam akademisi**

**Dr. of Sciences, Accociate Prof. Al-Beruni Institute of Oriental Studies /
International Islamic academy of Uzbekistan**

e-mail: usultonov@mail.ru

Orcid ID: 0000-0002-7746-7990

Makale Bilgisi / Article Information

Makale Türü / Article Type : Araştırma Makalesi / Research Article
Geliş Tarihi / Received : 25.08.2020
Kabul Tarihi / Accepted : 18.10.2020
Yayın Tarihi / Published : 18.10.2020
Yayın Sezonu : Ekim / Hokan Hanlığı Özel Sayısı
Pub Date Season : October / Hokand Khanate Special Issue

Atıf/Cite as: Sultonov, U . (2020). The Khan Of Khoqand Whom We Don't Know: on the rule of Shahrukh Khan b. Muhammad-'Ali-Khan . İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi , 9 (4) , 78-90 . Retrieved from <http://www.itobiad.com/tr/pub/issue/57171/785516>

İntihal /Plagiarism: Bu makale, en az iki hakem tarafından incelenmiş ve intihal içermediği teyit edilmiştir. / This article has been reviewed by at least two referees and confirmed to include no plagiarism. <http://www.itobiad.com/>

Copyright © Published by Mustafa YİĞİTOĞLU Since 2012 – Istanbul / Eyup, Turkey. All rights reserved.

BİLMEDİĞİMİZ KHOQAND HANI: Şahrukh Han ibn Muhammed Ali Han'ın hukmranlığı sorusu üzerine

Öz

Khoqand hanlığının siyasi tarihi, yerli tarihçilerin eserleri temelinde iyi incelenmiştir. Araştırmacılar 150 yıldan fazla bir süredir bu kaynaklara dayanarak, Ming hanedanının meşruiyet sorunları, iktidar değişiklikleri, taht adaylarının entrikaları ve politikalarını araştırıyorlar. Ancak belgesel kaynaklar, özellikle hanlığın saray mahkemesine dair belgeler yeterince incelenmemiştir. Dolayısıyla bu alandaki yeni gerçekler, Khoqand hanlığı tarihinin bazı yönlerini değiştirebilir. Bu makalede de bu tür gerçeklerden biri - yerli kaynaklarda sahte bir prens ve sahtekar olarak kabul edilen Shahrukh-Han'ın hanlığı ile ilgili kanun belgeleri analiz edildi. Han'ın badem mührü ile mühürlenmiş geleneksel formda hazırlanan bu belgeler, ülkenin bazı bölgelerinde Shahrukh-Han'ın hükümetini kanıtladı. Ve ayrıca, destekçilerinden kendi hükümetinin kurulması, hanlık mahkemesi ve resmi mühür, vergi sistemi, otoritesinin bu bölgenin nüfusu ile en önemli tanınması analiz edildi.

Anahtar Kelimeler: Khoqand hanlığı, Shahrukh-Khan, Muhammed-'Ali-Khan, sahte prens, saray belgeleri, mühür.

THE KHAN OF KHOQAND WHOM WE DON'T KNOW: on the rule of Shahrukh Khan b. Muhammad-'Ali-Khan

Abstract

A Political history of the Khoqand khanate is well studied on the basis of the works of local historians. For more than 150 years the researchers of the khanates, based on these sources, are investigated the problems of legitimization of the Ming dynasty, changes of power, intrigues of candidates to throne



and their policies. However, the documentary sources, especially the royal deeds of the khanate have not been studied enough. Therefore, new facts in this area can change some aspects of the Khoqand khanates history. In this article too analyzed one of such fact – royal deeds related to Shahrukh-Khan's royal chancery, who in local historiography was considered to be a fake prince and impostor. These documents, which prepared in the traditional form, sealed with Khan's almond seal proved Shahrukh-Khan's government in the some parts of the country. And also, the establishment of his own government from supporters, the royal court and official seal, tax system, the most important recognition of his authority with the population of this territory.

Keywords: Khoqand khanate, Shahrukh-Khan, Muhammad-'Ali-Khan, false prince, royal deed, seal.

BIZ BILMAGAN “QO’QON XONI”:

Shohruxxon ibn Muhammad Alixonning hukmronligi masalasiga doir

Muammoga kirish: soyada qolgan shaxs

Qo'qon xonligining siyosiy tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular XIX asr ikkinchi yarmidan boshlanib hozirgacha davom etmoqda. Shu sabab xonlik tarixi go'yoki ko'pchilikka juda yaxshi tanishdek. Aniqrog'i bu xonlik haqida Buxoro va Xivadan ko'ra ko'p narsa biladigandekmiz. Ayniqsa, so'ngi o'n yil ichida taniqli olimlar T.K. Beysembiev (Beysembiev, 2009, 1263), Sh.H. Vohidov (Vohidov, Tb., 317), B.M. Babadjanov (Babadjanov, 2010, 744) va S.C. Livayning (Scott, 2017, 258) maxsus tadqiqotlarining birin-ketin nashr etilishi bunday qarashni kuchaytirdi. Lekin xonlikning siyosiy tarixiga oid tasavvurlarimiz asosan mahalliy muarrixlarning asarlari, numizmatik materiallar va sayyohlar



kundaliklariga asoslangan. Qo'qon xonlari saroy devonxonasiga tegishli qonunchilik aktlari va ish yuritish tizimiga oid hujjatlar esa deyarli o'rganilmagan. Shu sababli mazkur hujjatlar bilan bog'liq kichik bir faktning o'rtaga chiqishi yangi savollarni paydo qiladi. Bu esa avvalgi ilmiy farazlarni qayta o'ylab ko'rishga, yangi izlanishlarga undaydi. Masalan, taniqli olim V.N. Nastich 1858-1862 yillarda xonlik qilgan Mallaxonning 1871-1873 yillarda zarb qilingan tangalari xususida to'xtalib, xonlik tarixidagi jumboqli bir muammoni o'rtaga tashlagan edi. Uning fikricha, bu tangalar Mallaxonning tarafdorlari yoki bizga notanish "Mallaxon II" tomonidan zarb qilingan bo'lishi "mumkin" ekan (Nastich, Tb., 2). Keyingi ishlarida esa bu tangalar Sharqiy Turkistonda Qo'qon hukmdori Mallaxon nomidan zarb qilingani haqidagi mulohazalarini e'lon qildi (Nastich-Schuster, 2017, 242-243).

Ana shunday ilmiy muammolardan biri Qo'qon taxti da'vogarlaridan biri Shohruxxon ibn Muhammad Alixonning hukmronligi masalasidir. Bu muammoga 2010 yilda e'lon qilgan R.N. Nabiyevning uning vafotidan ancha o'tib chop etilgan "Vakfnoye xozyastvo Kokandskogo xanstva" nomli kitobiga yozilgan taqrizimizda ham qisqa to'xtalgan edik (Sultonov, 2011, 148). Taqdim etilyotgan maqolada ayni shu masalaga qaratilgan.

Zamondosh muarrixlarga ko'ra, Shohruxxon soxta shahzoda edi. Lekin biz hozircha Shohruxxonning "soxta" ekanligini bir chekkaga surib turamiz. Qolaversa, uning shaxsiyati, taxtga ko'tarilishning siyosiy sabablari haqida ayrim fikrlar bildirilgan (Nabiev, 1973, 62; Beysembiev, 2009, 30; Babadjanov, 2010, 245, 249). Muammo shundaki, Shohruxxon ham xonlikda hokimiyat uchun kurash avj olgan 1862 yilgi taxt da'vogarlaridan biri bo'lgan. Lekin taqdir va tarafdorlarining yuz o'girishi sabab u tarix sahifalarida boshqa "omadli" da'vogarlar soyasida qolib ketdi. Xonlik tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarda, ensiklopedik



nashrlar va darsliklarda uning faoliyatiga etarli baho berilmadi. Bizni qiziqtirayotgan masala Shohruixon ham o'sha paytdagi munosib taxt da'vogarlaridan birimidi yoki boshboshdoqlik vaqtida bir necha kunlik fitnachi edimi? Taxtni egallash va xonlik tarixida yangi bir hukmdor sifatida qolish uchun qanchalik imkoniyati bor edi. O'sha qisqa paytda buning uchun u nimalarni qila oldi? Bu kabi savollarga javob qidirar ekanmiz biz uning hukumatining qonuniylashtirilishi, jamiyatda qanday qabul qilingani, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday aks-sado bergani haqida fikr yuritamiz.

Shohruixon va uning raqiblari: taxt uchun kurash

Shohrux ismi Qo'qon xonligi siyosiy tarixida ancha mashhur, yozma manbalarda ham ko'p tilga olinadi. XVIII asr boshida Farg'ona vodiysida hokimiyatni egallagan Minglar xonadonida xonlik asoschisi Shohruxbiy (h.y. 1709-1722), Norbo'tabiyning (h.y. 1770-1799) o'gay birodari, Olimxonning (h.y. 1799-1810) o'g'illaridan biri ular orasida eng mashhurlari edi (Beysembiev, 2009, 607; Scott, 2017, 55, 91, 92, 96). XIX asrning 60-yillari boshida bu ismning yana siyosiy sahnaga kirib kelishi taxt da'vogarlardan biri "Shohruixon ibn Muhammad Alixon" nomi bilan bog'liq. Ba'zi manbalarda u Belboqchixon deb ham tilga olingan.

Shohruixonning taxtga ko'tarilishi 1862 yilda xonlikdagi hokimiyat uchun boshlangan yangi kurashlar bilan bog'liq. O'sha paytda amaldagi xon Mallaxon (h.y. 1858-1862) saroy fitnasida qatl etilib, Aliquli mingboshi (keyinchalik amirlashkar, o'ld. 1865) hamda Shodmonxo'ja mingboshi (o'ld. 1863) tashabbusi bilan Shohmurodxon ibn Sarimsoqxon ibn Sheralixon taxtga chiqarilgan. Bundan norozi bo'lgan sobiq hukmdor Xudoyorxon (h.y. 1844-1858, 1862-1863, 1865-1875) Buxoro hukmdori amir Muzaffar (h.y. 1860-1885) ko'magi bilan ikkinchi bor taxtni egallash harakatini boshlagan. 1862 yil boshida Qalandarbek ismi bilan yana bir shaxsni Muhammad



Alixonning o'g'li sifatida taxtga chiqarishga urinish bo'lgan edi (Beysembiev, 2009, 230). Lekin Xorazmdan yo'lga chiqqan Qalandarbekning missiyasi hali boshlanmasdanoq Xudoyorxon tarafdorlari tomonidan bartaraf etilib, uning o'zi Qo'qonga kelayotganda Qurama tog'larida o'ldirildi. Shohmurodxon esa qisqa muddat poytaxtni egallagach, uning tarafdorlari o'rtasida kelishmovchiliklar boshlangan. Natijada bir guruh qirg'iz-qipchoq zodagonlari Andijonga yaqin Asakada qandaydir Sarimsoq Hayit Muhammad o'g'lini Qo'qon xoni Muhammad Alixonning (h.y. 1822-1841) o'g'li sifatida Shohruxxon nomi bilan taxtga ko'targan.

Shohruxxonning faoliyatining davriy chegarasini aniqlab olish uchun avvalo o'sha davrda yuz bergan uchta asosiy tarixiy voqeani esga olamiz.

Birinchi voqea. 1278 yil 25 sha'bonda (1862 y., 25 fevral') Mallaxon qatl etilib, Aliquli lashkarboshi Hasanbiy o'g'li va Shodmonxo'ja mingboshi tashabbusi bilan Shohmurodxon ibn Sarimsoqxon ibn Sheralixon taxtga chiqarildi (Beysembiev, 2009, 539, 541).

Ikkinchi voqea. 1278 yil 6 zulhijja (1862 y., 4 iyun') Xudoyorxon Shohmurodxonni tan olmagan Toshkent, Qurama, Turkiston hokimlari va Buxoro amiri ko'magi bilan ikkinchi bor taxtni egallagan. Lekin u mag'lubiyatga uchragan. Buxoro hukmdori Amir Muzaffar Shohmurodxonni "Qo'qon taxtida qoldirilganini" ta'kidlab, Xudoyorxonni olib Buxoroga qaytgan (Nabiev, 1973, 61; Beysembiev, 2009, 539).

Uchinchi voqea. 1280 yil 5-7 safar (1863 y., 22-24 iyul') Shohmurodxon o'ldirilib, Aliquli amirlashkar tashabbusi bilan Sulton Sayyidxon ibn Mallaxon (h.y. 1863-1865) taxtga chiqarildi (Beysembiev, 1987, 126).

Shunday qilib, Qo'qon manbalari asosida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, Shohruxxonning taxt uchun kurashdagi



asosiy raqiblari Shohmurodxon, Xudoyorxon va Sulton Sayyidxon edi. 1862 yil fevralidan 1863 yil iyuligacha bo'lgan oraliqda Shohmurodxon va Xudoyorxon (ikkinchi marta) mamlakatning turli hududlarida hokimiyatni egallab turdi. Natijada bir muddat mamlakatda ularning qo'shhokimligi amalda bo'ldi. Masalan, Shohmurodxon poytaxt va Farg'ona vodiysini qo'lga kiritgan. U 1278/1862-63 yilda "Amir al-muslimin Sayyid Shohmurod" hamda "Sayyid Shohmurodxon" nomi bilan oltin va kumush tangalar zarb etgan (Nastich-Schuster, 1923, 148; Işanhanov, 1976, 14-15). Xudoyorxon poytaxt uchun janglar olib bordi. Lekin hukmi uning tarafdorlari egallab turgan hududlardagina (Toshkent va Sirdaryo bo'ylari) amal qilgan. Shunga qaramay, Xudoyorxon ham 1278/1862-63 hamda 1279/1863-64 yil sanalari bilan kumush va tilla tangalar zarbi davom ettirgan (Nastich-Schuster, 1923, 149-150; Işanhanov, 1976, 15). Ularning ikkalasi ham bu vaqt oralig'ida qonunchilik aktlari (yorliq, inoyatnoma, nishon) chiqarishga muvaffaq bo'lgan.

Shohruxxonga kelsak, bugungi kungacha e'lon qilingan ishlarda u taxt da'vogarlaridan biri sifatida juda qisqa yoritilgan (Beysembiev, 1987, 125; Beysembiev, 2009, 283; Babadjanov, 2010, 243-244). Lekin uning taxt uchun kurashi natijalari, egallagan hududida yuritgan siyosati haqida fikr bildirilmagan. Aslida Shohruxxon ham Shohmurodxon va Xudoyorxon singari bir muddat mamlakatning ma'lum qismida o'z hokimiyatini o'rnatgan "xon"lardan biri edi. U hatto 1862 yilning sentyabrda bir muddat Qo'qon shahrini ham egallagan. Biroq uzoq ushlab turolmay tashlab ketishga majbur bo'lgan.

Taxtga Mallaxonning yosh o'g'li Sulton Sayyidxon ko'rsatilishi natijasida Shohruxxon o'z tarafdorlarini yo'qotdi. Sababi dastlab uni qo'llab-quvvatlagan Aliquli amirlashkar endilikda boshqa amaldorlar va aholini o'z tomoniga olish uchun o'sha vaziyatda taxtga munosib nomzod bo'lgan Sulton



Sayyidxondan foydalanishga qaror qilgandi. Natijada Shohruxxon ham Shohmurodxon kabi Aliquli amirlashkar buyrug'i bilan o'ldirilib, Modu mavzei yaqinidagi tog'li yerda dafn etilgan (Toshkandi, 2007, 165).

Shohruxxon "saroy devoni" va uning qonunchilik aktlari

Boshqa sulolalar legitimatsiyasida bo'lganidek Minglar ham o'z hukmronligini rasmiylashtirish va mustahkamlashda hokimiyat ramzi bo'lgan bir qator atributlardan foydalangan. Hukmdor nomiga xutba o'qish, uning nomidan pul zarb etish hamda poytaxt shahar ular orasida eng muhimlari sanalgan (Bk; Babadjanov, 2010, 376-394). Ayni paytda taxt egasining hokimiyati va olib borgan siyosatini ko'rsatuvchi yana bir muhim omilni esdan chiqarmaslik kerak. Bu omil taxt egasining saroy devoni – turli vazifalarga tayinlangan amaldorlar, hukmdor sifatida uning amrini aks ettiruvchi qonunchilik aktlari va ularni haqiqiylikini tasdiqlovchi rasmiy muhr, saroy amaldorlari faoliyatini isbotlovchi ish yuritishga oid hujjatlarni (yozishmalar) o'z ichiga oladi.

Masalaga shu nuqtai nazardan qaraganda, Shohruxxon ham bu borada ancha ishni amalga oshirgan ko'rinadi. Har holda o'zi egallab turgan katta bo'lmagan hududlarda uning nomidan berilgan qonunchilik aktlari amalda bo'gan. Bunday hujjatlar haqida R.N. Nabievning uning vafotidan so'ng nashr etilgan tadqiqotida ham eslab o'tilgan. Lekin noshirlar bu hujjatlarning ahamiyatiga yetarlicha e'tibor qaratmagan (Nabiev, 2010, 191-192, 210, 463-464). Hozircha bizga Shohruxxon nomidan berilgan uchta inoyatnoma ma'lum. Inoyatnoma ham farmon, yorliq kabi saroy kantselyariyasiga mansub hujjat turi, mamlakatda qonun o'rnatish kuchiga ega bo'lgan. Shohruxxon nomidan turli vaqf xo'jaliklariga berilgan inoyatnomalarning qisqa mazmuni quyidagicha:



Birinchi hujjat. 1279 yil rajab oyida (23.12.1862–23.01.1863 y.) bitilgan. Unda Arslon bob mozori vaqf yerlaridan avval o'rnatilgan tartibga ko'ra xiroj va tanobona soliqlarini olmaslik amr qilingan (O'zbekiston Milliy Arxivi, I-19-fond, 1-ro'yxat, 34276-yig'ma jild).

Ikkinchi hujjat. 1279 yilning sha'bon oyida (22.01.–22.02.1863 y.) bitilgan. Unda Shohruxxon o'sha paytdagi Bekmuhammad dodxoh va boshqa amaldorlarga murojaat qilib sayyidzodalar (*siyodatpanohon*) Muhammad Aminxon to'ra va Muhammad Rizoxon to'raga tegishli Asakadagi Yobu arig'idan hech bir to'lov olinmasligi, amlokдорlar va fuqarolar ularga daxl qilmasligi haqida amr qilgan (O'zbekiston Milliy Arxivi. I-19-fond, 1-ro'yxat, 34710-yig'ma jild).

Uchinchi hujjat. 1279 (29.06.1862–30.06.1863 y.) yilda bitilgan. Unda O'sh shahridagi Norbo'taboy masjidi vaqf yeridan avval o'rnatilgan tartibga ko'ra, tanob va xiroj soliqlari olinmasligi haqida amr qilingan (O'zbekiston Milliy Arxivi. I-19-fond, 1-ro'yxat, 34946-yig'ma jild).

Mazkur hujjatlar 1887 yilda Turkiston o'kasida boshlangan vaqf xo'jaliklarini taftish qilish jarayonida kolonial mahkama nozirlari tomonidan "bu nomda xon bo'lmaganligi (!)" bahonasi bilan haqiqiy emasligi va chuqurroq tekshirish kerakligi qayd etilgan. Lekin bu hujjatlar o'sha vaqtgacha Shohruxxon egallab turgan hududlarda huquqiy kuchga ega bo'lgan va uning hokimiyatini tamsil qilgan.

Ushbu inoyatnomalar xonlikda muomalada bo'lgan avvalgi shu turdagi hujjatlar formulayida, fors-tojik tilida yozilgan. Hujjatdagi xat va matn tuzilishiga ko'ra albatta Umarxon (h.y. 1810-1822), Muhammad Alixon va Sheralixon (h.y. 1842-1844) davri qonunchilik aktlaridek sifatli emas. Aslida XIX asr ikkinchi yarmidan keyingi davrda Ming sulolasi saroy kantselyariyasida yirik o'lchamli yorliqlardan ko'ra o'rta va



kichik inoyatnomalar ommalashgan (Xudoyorxon nomidan berilgan ayrim yorliqlar bundan mustasno). Qolaversa, bu davrda chiqarilgan inoyatnomalarning matn tuzilishi, terminalogik bazasi va rasmiylashtirish tartibi birbiridan unchalik farq qilmaydi.

Shohruxxon inoyatnomalari uning "Sayyid Muhammad Shohruxxon ibn Muhammad Alixon" yozuvli, an'anaviy bodomiy muhri bilan tasdiqlangan. Odatda yirik yorliqlarni tasdiqlashda qo'llaniladigan ko'zasimon muhrlari hozircha uchramadi. Bodomiy muhrlarning birida uning kuchga kirgan vaqti sifatida "1278/1862" yil sanasi aniq ko'rinib turibdi. Quyida Shohruxxonga tegishli muhr va inoyatnomalardan biri keltirib o'tildi.



Shohruxxonga tegishli inoyatnoma va muhr

Yuqorida ko'rsatilgan Shohruxxonga tegishli uchta inoyatnoma bu bizga ma'lum hujjatlar xolos. Lekin o'sha vaqtda, boshqa vaqf muassasalariga yoki mansabga tayinlash haqidagi bunday



hujjatlar ko'plab chiqarilganiga hech shubha yo'q. Demak yuqorida tilga olingan inoyatnomalar va ulardagi xonlar uchun xos bo'lgan muhrdan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Shohruxxon taxt uchun kurash olib borar ekan Shohmurodxon va Xudoyorxon kabi o'z tasarrufiga olgan hududlarni amaldorlari va qonunchilik aktlari asosida idora qilgan. Ma'muriy boshqaruv va soliq siyosatini avvalgidek davom ettirishga uringan.

- avvalgi xonlarga taqlidan ishlangan Shohruxxonning bodomiy muhri unga avvalo o'z hokimiyatini, mamlakatning qonunchilik aktlarini qolaversa, o'zining faoliyatini (rasmiy yozishmalar olib borish, bitimlar tuzish) qonuniylashtirish uchun zarur edi.

- Shohruxxonning sayyidzodalar, masjid va mozorlarning vaqf ma'muriyatiga bergan imtiyozlar haqidagi inoyatnomalari uning jamiyatning ushbu tabaqasini tinchlashtirish (chunki Xudoyorxonning asosiy tarafdorlari ulamolar edi), kerak bo'lsa o'ziga og'dirish, egallab turgan mintaqalarda o'z qonunlarini joriy qilish uchun qo'yilgan muhim qadaml edi. Zero bu taxtga yangi chiqqan hukmdor qilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan biri hisoblangan.

Xulosa

Demak 1862-1863 yillarda Qo'qon xonligida taxt uchun kechgan siyosiy jarayonlarda boshqa da'vogarlar kabi Shohruxxon ham bir qator imkoniyatlarga ega bo'lgan. Masalan uni qo'llab-quvvatlovchilar orasida faraqatgina yarim ko'chmanchi qirg'iz-qipchoqlargina emas balki saroy devonini yurutish salohiyatiga ega shaxslar (ayniqsa ma'muriy boshqaruv, soliq siyosati va xon devonxonasida) ham bo'lgan. Albatta Shohruxxonning bu darajaga etishida dastlab uni qo'llab turgan siyosiy-ma'muriy boshqaruvda tajribaga ega Aliquli amirlashkarning ta'siri bo'lishi mumkin.



Shohruxxonning o'zi egallagan hududlarda inoyatnomalar chiqarishini uning ma'lum darajada erishgan muvaffaqiyati deb aytish mumkin. Sababi qisqa muddat taxtni egallagan soxta xonlar Shohmurodxon (h.y. 1862) va Fo'lodxon (h.y. 1875-1876) nomidan chiqarilgan inoyatnomalar ham jamiyat tarafidan haqiqiy qonunchilik akti sifatida qabul qilingan. Shohruxxon nomidan berilgan qonunchilik aktlarining ham 1887 yilgacha saqlanib kelishiga qaraganda ular ham jamiyatda qandaydir kuchga ega bo'lgan. Afsuski, hozirgacha Shohruxxonning pul zarb qilingani haqida ma'lumot yo'q. Lekin, yuqorida tilga olingan inoyatnomalar Shohruxxon egallagan hududlar uning tarafdorlari orqali boshqarilgani, soliq va turli yig'implar uning "hukumatiga" bo'ysungan amaldorlar tomonidan olib borilgani haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Bu holatni Asakadagi Yobu arig'i masalasida mahalliy amaldor Bekmuhammad dodxohga yo'llangan inoyatnoma misolida ko'rishimiz mumkin. Demak, inoyatnomalar Shohruxxon hukumati taxminan 1862 yilning ikkinchi yarmidan 1863 yil boshiga qadar xonlikning ayrim hududlarida kuchda bo'lganini ko'rsatadi. Kelgusida Shohruxxonga tegishli boshqa qonunchilik aktlarining yoki numizmatik materiallarning topilishi uning hokimiyatiga yanada aniqlik kiritadi.

Kaynakça / Reference

- Babadjanov B.M. (2010). *Kokandskoye xanstvo: vlast', politika, religiya*. Tashkent-Tokio: Yangi nashr.
- Beysembiev T.K. (1987). *Ta'rixi Shaxruxi kak istoricheskiy istochnik*. Alma-Ata.
- Beysembiev T.K. (2009). *Kokandskaya istoriografiya*. Almaty.
- Vohidov Sh.H. (2010). *Qo'qon xonligida tarixnavislik*. Toshkent: Akademiya nashri.
- Ishanxanov S.X. (1976). *Katalog monet Kokanda XVIII-XIX vv.* Tashkent.



Mirza Alim ibn Mirza Rahim Toshkandi (2007). *Ansab as-salatin va tavarix al-xavakin*. Perevod, primechaniya i ukazateli S.Yuldashev. Vvedeniye, nauchnyy redaktor Sh.Voxidov. Tashkent.

Nabiev R.N. (1973). *Iz istorii Kokandskogo xanstva (Feodal'noye xozyastvo Xudayar-xana)*. Tashkent: Fan.

Nabiev R.N. (2010). *Vakfnoye xozyastvo Kokandskogo xanstva*. Tashkent.

Nastich V.N. (2001). *Novye materialy k istorii Kokanskogo xanstva XIXv. (posmertny chekan Malla-xana ili Malla-xana II?) / <http://www.charm.ru/novgorod/novgorod-report-nastich.shtml>* (Doklad na IX Vserossiyskoy numizmaticheskoy konferensii Rossiya, Velikiy Novgorod, 16-21 aprelya 2001 g.).

Nastich V., Schuster W (2017). *Catalog of Pre-Modern Central Asian Coins 1680-1923. Bremer Beiträge zur Münz- und Geldgeschichte. Band 10. Bremer Numismatische Gesellschaft. – Bremen.*

Scott C. Levi. 2017. *The rise and fall of Khoqand, 1709-1876. Central Asia in the Global Age*. University of Pittsburgh Press.

Sultonov O'.A. (2011). Qo'qon xonligi vaqf munosabatlariga doir hujjatlar tadqiqi muammolari // *Sharqshunoslik (O'zRFAShI)*. Toshkent, №15. – B.144-150.

O'zbekiston Milliy Arxivi (Toshkent). I-19-fond, 1-ro'yxat.

